

LINGVOPOETIK TAHLIL HAQIDA NAZARIY MA'LUMOTLAR

Rajabova Sabohat Jo'ramurod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: lingvopoetika haqidagi ma'lumotlar ham adabiyotshunos, ham tilshunoslardan uchun juda muhim ma'lumotlar sanalib, ushbu ma'lumotlar orqali ularga har qanday matnni bermalol tahlil qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, lingvopoetika, matn turi, tasviriy vositalar, epigraf.

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish o'ziga xos hisoblanadi va bularga e'tibor berish talab etiladi. Agar biz bir she'rni, hikoya yoki romanni o'qiyotganimizda asar mazmunini yakka-yakka so'zlardan yoki faqat ayrim iboralar bilan emas, balki matn deb ataluvchi butunlik bilan munosabatga kirishgandan so'nggina anglay boshlaymiz deganidir. Badiiy asarni jurnalni o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Badiiy asarni o'qish uchun ham alohida bir tayyorgarlik zarur. Voqealar tizimini kuzatib borish bilangina asar o'qigan bo'lib qolmaymiz. O'zimizda faol o'qish tarzini shakllantirishimiz anchayin zarur, aks holda asar o'qish shunchaki vaqtini «o'ldirish» mashg'uloti bo'lib qolishi aniqdir. Endi savol tug'iladi, faol o'qish tarzini shakllantirish uchun nima qilish kerak? Buning uchun yozuvchi va matn bilan haqiqiy muloqotga kirishishimiz bizdan talab qilinadi. Ularga o'zimizning savollarimizni muntazam va doimiy berib borishimiz kerak. Matnni har tomonlama tahlil qilib borishingiz ham juda kerakdir. Matn ma'no, mazmun, mohiyatiga kirib borish uchun eng avvalo tilshunoslilik va adabiyotshunoslilik tamal qonuniyatlaridan xabardor bo'lish lozim. Quyida biz sizga havola qilinayotgan tahlil tartibi qat'iy-qotma tartib emas, uni tahlil obyekti va metodiga qarab o'zgartirishingiz mumkin deganidir.

Dastlabki tayyorgarlik. Har qanday badiiy asarni o'qish uchun avvalo tayyorgarliklar zarur bo'ladi. Bu tayyorgarlik aslida avtomatik tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, biror bir romanni o'qimoqchi bo'lganingizda asar muqovasining o'ziyoq sizga dastlabki

ma'lumotlarni berib bo'ladi. Muqovaning bezatilishi, muallif ismi-sharifi, hatto roman deb yozib qo'yilgan bo'lsa, o'sha so'zning o'zi ham matn bilan munosabatga kirishishingizni ta'minlashi juda aniq. Biz aytmoqchi bo'lgan tayyorgarlik ham shunga yaqin faqat biroz vaqt, biroz qunt va jiddiyat talab qilishi bilan farqlanadi. Bu tayyorgarlikni to'rt turda umumlashtirishga harakat qildik.

Birinchisi. Matnga aloqador ma'lumotlarni o'rganishdir. Hozir Eshqobil Shukur "Bobo so'z izidan" asari lingvopoetikasi haqida biroz ma'lumotlar bilan to'xtalib o'tmoqchiman.

Eshqobil Shukur ham "Bobo so'z izidan" asarini yozar ekan ko'p bor Navoiy, Qoshg'ariy asarlaridan so'zlar izohini keltirgan.

Odam sevishni o'rganmaydi, sevgining o'zi keladi deyishadi-ku, lekin men so'zlarni sevishni o'rgandim. "Duvonu lug'otit turk"ning qalin o'rmonlarida, tom-tom lug'atlarning toyg'oq so'qmoqlarida, xalq tili va ustoz kitoblarning minglab chaqirimlariga cho'zilib ketgan yo'llarida yurdim. Ular menga sevishni o'rgatdilar. Tangriga shukurlar bo'lsin.

- Matn turini aniqlash.

Ikkinci odim. Matn tuzilishini o'rganish.

Asarda keltirilgan "yig'ladi" so'ziga keladigan bo'lsak, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "chilandi" ya'ni "namlandi, terladi" ma'nolari mavjud ekan.

Devonda yig'ladining sigtadi shakli ham mavjud. Yig'ladi so'zi shevada "jiladi" kabi turlari borligiga qaragandi chilandi ham mavjud deb qaraladi. Bu so'zni juft so'z qilib ishlatganimizda, Alisher Navoiy ijodida uchratamiz. "Bir muddat yig'lamoq, yig'lab yurmoq" ma'nosini bildiradi. Siqtan so'zi hozir qo'llanmaydi, avval esa yig'lamoq so'zining sinonimi bo'lgan. Alisher Navoiy "Muhokamatul-lug'atayn" asarida bu so'zni yig'lamoq so'ziga nisbatan mubolag'ali ekanligi, yig'lashning kuchli darajasini bildirishini aytadi va quyidagi sinonimlar qatorini keltiradi: yig'lamak – inchkirmak – ingramak – singramak – yig'lamsinmak – siqtamak – o'kurmak – hoy-hoy yig'lamak. Yig'lamoq va siqtamoq so'zları uzoq vaqt sinonim so'zlar sifatida yonma-yon qo'llangan. Shundan keyin juftlashib qo'llanadigan bo'lgan: Siz juda chidamli ayolsiz! Yig'lab-siqtan o'tirganingiz bilan hech narsa bitmaydi, opa!(Sh.Xolmirzayev, Saylanma)

Demak, siqtamoq so'zi hozirgi o'zbek tilida faqat yig'lamoq so'zi bilan birga qo'llanadi, yig'lab-siqtan, yig'ladi-siqtadi juft so'zları tarkibidagina saqlanib qolgan. Keyingi so'z "kesak" ya'ni "qurigan loy parchasi" bo'lgan, aslida qadimgi turkiy tilda bu so'z "parcha" ma'nosini bergen, material, qog'ozning ham kesilganini "kesak" deyishgan. Hozirda esa "kesak" "qotgan, qurigan loy bo'lagi" deb tushuniladi:

Ichkaridan ham chertish tovushi eshitilgan-dan keyin, yerdan bir kesak olib, derazaga katta harf bilan "men" so'zini teskari yozdi. S. Ayniy, „Qullar“.

To‘rtinchi odim. Matn va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi aloqani o‘rganish.

Devor ustida turgan o‘n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko‘chi-rib olib, mulla Norqo‘ziga o‘qtaldi. Keyingi keltirilgan so‘z "Har kuni qayta-qayta ishlatadiganimiz "tirik" so‘zi hamisha tirik va tetik. Mahmud Qoshg‘ariy izohiga ko‘ra, "tir" so‘zi asli "yasha" degan ma’noni anglatadi. Demak, "tirik" so‘zi ham aynan shu "tir" so‘zidan kelib chiqqan. O‘z-o‘zidan ayonki, tirik yashashi bilan tirik" chindan ham "tirik" so‘zining asosi "tir" bo‘lib "yasha" ma’nosini bergen bo‘lsa, tirikning antonimi "o’lik" ning ham asosi "o’l" bo‘lib fe’l so‘z turkumiga oid hisoblanadi.

Ma'lumki, xoh shoir bo‘lsin, xoh yozuvchi, albatta, Alisher Navoiy hamda Mahmud Qoshg‘ariy asarlariga yuzlanishadi. Chunki ular yaratgan asarlarda ham til nuqtai nazaridan, ham adabiy tasvir tomonidan ham ko‘p narsa o‘rgansa bo‘ladi. Eshqobil Shukur ham "Boboso'z izidan" asarini yozar ekan ko‘p bor Navoiy, Qoshg‘ariy asarlaridan so‘zlar izohini keltirgan.

Bobo so‘z izidan asarida yozuvchi so‘zlarning Ma'nolarini izohlab berish uchun eng ko‘p "O‘zbek tilining etimologik lug'ati" ga murojaat qilgan. Lug'atning bu turi aslida qanday ekanligi hammamizga ma'lum.

-Yozuvchining boshqa asarlari va siz tahlil qilayotgan asari o‘rtasidagi aloqadorlik. Bu asarning boshqa asarlardan farqi.

Tillardagi so‘zlarning dastlabki kelib chiqish ma’nosи etimologik lug‘atlarda beriladi. Ensiklopedik nashrlarda, jumladan, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida, odatda, boshqa tildan^ o‘tgan so‘zlargagina Etimologiya ko‘rsatiladi. Shunga ko‘ra matndagi til birliklari muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi (ya’ni, kim-nima, kimganimaga, kim haqida-nima haqida).

Birinchi odim. Badiiy nutq ko‘rinishlarini belgilash.

-Monologik nutq, dialogik nutq, parallel nutq. Ichki nutq, tashqi nutq. Qahramonlarning yozma nutqlari, gazeta va jurnallardan olingan nutq ko‘rinishlari.

-Hikoyachi shaxsini aniqlash. Kim hikoya qilyapti? Hikoyachi kim haqida gapiryapti? Hikoyachi o‘zini bevosita ifodalayaptimi yoki bilvosita?

-Hikoyachi nutqining ko‘rinishlarini belgilash: xolis nutq, munosabatli nutq. Ichki nutq, tashqi nutq.

-Qahramon shaxsini aniqlash. Bosh qahramon kim? Qaysi toifa-tabaqa yoki ijtimoiy qatlam vakili? Qahramon fe’l-atvori, dunyoqarashini aniqlash.

-Qahramon nutqining ko‘rinishlarini belgilash. Xolis nutq, munosabatli nutq. Ichki nutq, tashqi nutq.

Ikkinchi odim. So‘zning estetik vazifasi.

-Badiiy asarda yozuvchi tomonidan atayin qo‘llangan so‘zlarni aniqlash. Nega aynan shu so‘zni qo‘llaganligi, bu so‘zning asar mazmuni va estetikasi uchun qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritish.

-Tarixiy, arxaik va yangi so‘zlarni aniqlash, ma’nosini izohli lug‘atlarga asoslanib sharhlash. Ularning asarda qo‘llanilish o‘rnini va sababini belgilash.

-Iste’mol doirasi chegaralangan so‘zlar(kasb-hunar so‘zları, shevaga oid so‘zler, chet va dag‘al so‘zler)ni aniqlash, ma’nosini zaruriy lug‘atlarga asoslanib sharhlash. Ularning asarda qo‘llanish o‘rnini va sabablarini izohlash.

-Ma’nodosh, shakldosh, paronim va zid ma’noli so‘zlarni aniqlash. Ularning asar mazmuniga qanday ta’sir etganligi haqida mulohaza yuritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умирқұлов Б. Поэтик нутқ лексикаси.–Тошкент: Фан, 1990.
2. Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти., 1985.
3. <http://www.edunet.tn>. Anne-Marie Albisson. Бадий матн анализи.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>